

O'ZBEKISTONDA VOYAGA YETMAGANLARNING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Jo'rayev Jasurbek O'rol o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi xizmat faoliyatini psixologik
ta'minlash faoliyati mutaxassisligi

3- bosqich kursanti.

Email address: jurayevjasurbeko53@gmail.com

Telefon raqam: +998933131339

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10927498>

Annotatsiya. Ushbu maqolaning dolzarbligi, O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari bo'yicha ish faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va voyaga yetmaganlarda moslashuvchanlik, individual psixologik xususiyatlar, shuningdek, ulardagi salbiy xislatlarning ish jarayonida ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish, amaliyotchi inspektor-psixologlarning nizoli vaziyatlarga duch kelgan xodim va voyaga yetmagan jinoyatchi shaxslar bilan suhbat va trenninglar o'tkazishning zamonaviy texnologiyalari to'g'risida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchi, amaliyotchi, psixolog, trenning.

SOCIAL- PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF MINORS IN UZBEKISTAN

Abstract. The relevance of the research topic in this dissertation, the elimination of problems arising in the course of work on socio-psychological problems of juvenile delinquency in Uzbekistan and the flexibility of juveniles, individual psychological characteristics, as well as the factors influencing their work psychologists covered modern technologies for conducting interviews and trainings with employees and juvenile offenders in conflict situations.

Key words: criminal, practitioner, psychologist, training.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Актуальность данной статьи заключается в устранении проблем, возникающих в процессе работы над социально-психологическими проблемами преступности несовершеннолетних в Узбекистане, а также в устранении факторов, влияющих на гибкость рабочего процесса, индивидуально-психологические особенности, а также негативные характеристики. несовершеннолетних, практикующих были освещены современные технологии опроса и обучения инспекторов-психологов с сотрудниками и несовершеннолетними правонарушителями, оказавшимися в конфликтных ситуациях.

Ключевые слова: преступник, практик, психолог, тренинг.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohatlar hamda qadriyatlarimizning qayta tiklanayotganligi, milliy, madaniy va ma'rifiy meroslarimizdan turmushda, bolalar tarbiyasida keng miqyosda foydalanayotganligi kishilar o'rtasida mehr-oqibat, insoniylik, muruvatlilik va oliyjanoblik kabi yuksak fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratish bilan bir qatorda yurtimiz fuqarolari turmush farovonligining oshishiga, ularda ertangi kunga bo'lgan ishonch hissining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida davlat miqyosida ulkan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash- davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida "bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqyapti? Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr- oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, ma'sulyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rish kabi illatlar paydo bo'layotgani achchiq bo'lsa-da, haqiqat" degan edilar.¹

Bu esa Respublikamiz rahbariyati va keng ilmiy jamoatchiligining e'tiborini bu sohaga yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Mazkur muammoning bugungi kundagi dolzarbligidan kelib chiqib, "O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari" nomli ilmiy maqola mazvusi tanlandi

Yoshlar tarbiyasi, ularning barkamol inson sifatida shakllanishi muammosiga har bir mamlakatda o'z davrining asosiy masalalaridan biri sifatida qaralgan. Jumladan, XIV asr ilmiy fanning yorqin namoyondasi hisoblangan Jaloliddin Devoniyning "Bolalar tarbiyasi haqida" va "Axloqi Jaloliddin" asarlaridagi odob- axloq va yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan chuqur falsafiy g'oyalari bugungi kunda ham yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda, insoniyat va jamiyatga nisbatan turli xil qabihliklarni amalga oshirmaslikka undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning nazariy g'oyasi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqi bir qator ijtimoiy, psixologik, moddiy-maishiy, ma'naviy- ma'rifiy, intellektual, psixofiziologik omillar bir- biri bilan uzviy yaqinlikda jinoyatchilik xulqini keltirib chiqaruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'laylik ijtimoiy muhit nosog'lomligi voyaga yetmaganlar shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlar ta'siri ostida g'ayriqonuniy xulq- atvor motiviga aylanishi va voyaga yetmaganlarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7-iyundagi "psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyat huquqnuzaligining oldini olish chora- tadbirlari to'g'risida" gi 472-sonli Qarori

jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bizningcha, voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi va namoyon bo'lishi quyidagi bosqichlar orqali amalga oshadi:

- G'ayriqonuniy xulq- atvor motivining paydo bo'lish bosqichi;

Bu bosqichda o'smirda muayyan narsaga nisbatan bo'lgan ehtiyoj vujudga keladi va uning natijasida ehtiyojni qondirishga bo'lgan intilish paydo bo'ladi. Ushbu ehtiyojni qondirishning qonuniy yo'li mavjud bo'lmagan holata obyektiv va subyektiv asoslarga ko'ra, g'ayriqonuniy xulqni amalga oshirish yo'li tanlanadi.

- Ehtiyojning g'ayriqonuniy xulq- atvor motiviga o'tish bosqichi;

Ehtiyojning jinoyatchilik xulqi motiviga aylanishida shaxsning g'ayriqonuniy ustanovkalari bilan bir qatorda muayyan hayotiy vaziyatlar ham ishtirok etadi.

- Qabul qilingan qarorni amalga oshirish bosqichi;

Bunda shaxs muayyan vaziyatlarda o'z ehtiyojini qondirish maqsadida o'zining ruhiy, ma'naviy dunyoqarashidan kelib chiqib, ma'lum qaror qabul qiladi. Ushbu qaror jinoiy xatti- harakatni amalga oshirish bo'yicha qaror bo'lishi ham mumkin.

Xulosa qilib yakunlaydigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqi makro va mikromuhitdagi, jumladan oila, maktab, mahalla, ishlab chiqarish jamolaridagi nosog'lom psixologik muhit, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlarning pastligi ta'sirida kelib chiqadi, shu turda shaxslarning jinoyatchiligining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi oilaviy omillarga ko'ra, "ota-onalarning oilada farzandlariga nisbatan qahr va g'azab asosidagi munosabat yuritishlari", "erkinlik berish asosidagi tarbiya usulida", "tarbiyada izchillikning yuqligi", "oilada nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi" kabilarda kuzatishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- T. "O'zbekiston" NMIU, 2017.-103b
2. Karimov, I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutq. 1992-yil 8-10 dekabr. T: "O'zbekiston" 1992.-62b
3. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T: "Ma'naviyat", 2008-176b
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Huquqiy tarbiyasini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini

takomillashtriish,jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida// "Xalq so'zi" 26-iyun.

5. Oliy Majlis 29-avgust 1997 yil Qarori.T: "Adolat", 2004.-621 b